

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10. RAQAMLI ILMIY KENGASH
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XOMUDJONOVA FERUZA KOMILJON QIZI

**O'QUV MASHG'ULOT GURUHIDA SHUG'ULLANUVCHI 14-15 YOSHLI
KURASHCHILARNING HARAKAT TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

по педагогическим наукам

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Xomudjonova Feruza Komiljon qizi

О‘quv mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarning harakat tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi5

Хомуджонова Феруза Комилжон кизи

Методика совершенствования двигательной подготовки борцов 14-15 лет, участвующих в тренировочных группах.....25

Khomudjonova Feruza Komiljon kizi

Methodology for improving motor training of 14-15 year old wrestlers participating in training groups.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10. RAQAMLI ILMIY KENGASH
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XOMUDJONOVA FERUZA KOMILJON QIZI

O‘QUV MASHG‘ULOT GURUHIDA SHUG‘ULLANUVCHI 14-15 YOSHLI
KURASHCHILARNING HARAKAT TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.Phd/Ped6770 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Shahrizabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida www.buxdu.uz hamda “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tajiboyev Soyib Samijanovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Raxmatova Dilnoza Nigbayevna

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xasanov Ilyos To‘ychiyevich

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ da tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi)

B.B.Ma‘murov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E.Sattorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), professor

M.J.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda turli yoʻnalishlardagi sportni rivojlantirish uchun koʻplab yangi texnologiyalar va innovatsiyalar mavjud boʻlgan davrda sportchilarni tayyorlash tizimi yil sayin takomillashib bormoqda. Biroq muvaffaqiyatga erishish jarayonlarida raqobat oʻziga xos imkoniyatlarni yaratmoqda, mashgʻulotlarni samarali tashkillashtirish, zamonaviy texnologiyalar yordamida sportchilarni maxsus sport moslamalari orqali nazorat qilish va boshqarishga oid muammolarni oʻrganish boʻyicha koʻpgina tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud manbalarni tahlil qilish natijasi shuni koʻrsatdiki, milliy kurash amaliyotda talab darajasida yoʻlga qoʻyilmagan, shu bois boshqa sport turlarida olib borilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan holda baʼzi yangi usullar milliy kurashga kiritilmoqda. Sport amaliyotida ilgʻor tajribalarni oʻrganish natijasida kurash mutaxassislari tomonidan mashgʻulotlarni rejalashtirish kompleks taʼsir qiluvchi mashgʻulotlardan foydalanish masalasi koʻrib chiqilib, mashgʻulotlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini har bir bosqichda muntazam oshirib borish, shuningdek, mashgʻulotlar jarayonida zamonaviy sport anjomlaridan faol foydalanish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Jahon sport amaliyotining yetakchi ilmiy tadqiqotchilari tomonidan yakkakurashchilarning mashgʻulot va musobaqalar jarayonida shakllangan jismoniy hamda psixologik, funksional tayyorgarlik darajasini yaxshilash, ularning texnik-taktik mahoratini oshirish, turli xil malakaga ega boʻlgan kurashchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan uzviy bogʻliq boʻlgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda asosiy eʼtibor harakat tayyorgarligini rivojlantirishning yangi vosita, metodlarida sensitiv davrlarda beriladigan yuklama hajmi va shiddatini tartibga solishga qaratilmoqda. Tabiiyki, kurashda qoʻllar doimo band boʻlishi texnik-taktik harakatlarning goh oʻngga, goh chapga ijro etilishi kurashchilarda harakat tayyorgarligini takomillashtirish va maqsadli rivojlantirish masalasi tadqiqotlarda yetarlicha ochib berilmagan.

Respublikamizda oʻsmir kurashchilarni tayyorlash amaliyoti, mahalliy mutaxassis olimlar tomonidan ushbu yoʻnalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar tarkibida kurashchilarimizni Jahon va Osiyo musobaqalarida yuksak natijalarga erishishlari yoʻlida qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 4-noyabridagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4881-sonli qarorida, koʻplab vazifalar belgilab berilgan. Dunyo miqyosida har bir xalq va elatning asrlar davomida paydo boʻlib rivojlangan oʻziga xos kurash turlari mavjud, shu qatorda Oʻzbekistonda ham “Buxorocha” va “Fargʻonacha” usulda oʻtkazilib kelingan milliy kurash turlari keng ommalashgan. Jumladan, kurash jahonning barcha qitʼalarida rivojlanib ommalashayotgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda mazkur kurash sport turi bilan shugʻullanuvchi sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng koʻlamli islohotlar, ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda¹. Shu

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada

jumladan, milliy kurash bilan qizlarning ruhiy-ma'naviy dunyosini boyitish, vatanparvarlik, jasorat, vatanga sadoqat tuyg'ularini keng targ'ib qilish va rivojlantirish yo'lida ularning yangi bosqichga tayyorgarligini muntazam oshirib borish, kurashchi qizlarni, malakali sportchi-qizlarni tayyorlash maqsadida ilg'or texnologiya va mashg'ulot usullarini joriy etish jarayonlari kuzatilmoqda. Kurash bo'yicha sportchilarni zamonaviy ilmiy-metodik tavsiyalar asosida tayyorlash orqali o'quv-mashq jarayonini tashkil qilish, ular orasida qiziqish va raqobat kuchayib borayotganini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash kurashchilarimizni tayyorlash tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish, uni keng ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyati cheklangan shaxslarning jismoniy rehabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirokini ta'minlash maqsadida 2020-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son Farmoni tasdiqlandi.

Qadimiy qadriyatlarimiz — mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va uni dunyoga tanitish, ushbu bebaho merosimizni umumjahon durdonasiga aylantirish maqsadida 2020-yilning 4-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-son qarori qabul qilindi.

Kurash milliy sport turini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish, uning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, xorijiy mamlakatlarda yanada keng targ'ib qilish, shuningdek, ushbu sport turini rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha faoliyatni tizimli qo'llab-quvvatlashni tashkil qilish maqsadida 2024-yilning 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-450-son qarori tasdiqlandi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga bog'liq holda amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. E'tirof etish joizki, hozirgi paytda respublikamizda milliy kurash va boshqa kurash turlardagi sportchilarning texnik-taktik harakatlarini yaxshilash borasida tavsiyalar ishlab chiqilmoqda va amaliyotda keng qo'llanib kelmoqda. Yakkakurash turlari, xususan, Milliy kurash bo'yicha so'nggi yillarda xalqaro arenalardagi natijalarimiz tushib ketayotganligining birdan bir sababi sportchilarimizning musobaqa faoliyatida maxsus jismoniy

tayyorgarligining talab darajasida emasligidir. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan barcha tadqiqotlar sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, bu borada ko‘plab mutaxassislar tomonidan samarali ishlar amalga oshirilgan.

Mamlakatimiz olimlari N.A.Kerimov, F.A.Kerimov, A.N.Abdiyev, Z.A.Bakiyev, I.B.Aliyev, O.J.Dadabayev, R.D.Xalmuxamedov, S.S.Tajibayev, Sh.A.Mirzaqulov, N.A.Tastanov, Sh.X.Xankeldiyev, A.R.Taymuradov, Z.S.Artiqov, A.N.Elov, Sh.S.Mirzanov, A.J.Tangriyev va F.I.Bobomurodovlar kurashchilar tayyorgarligini samarali oshirish uchun mashg‘ulot va musobaqa faoliyatida jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan².

Mustaqil hamdo‘stlik mamlakatlari (MDH) olimlari G.V.Julina, V.V.Ribakov, G.E.Medvedev, V.G.Nikitushkin va boshqalar kurash turlari bo‘yicha sportchilarning jismoniy tayyorgarlik va texnik-taktik harakatlarini rivojlantirishning ilmiy, nazariy va uslubiy asoslariga doir tadqiqotlar olib borganlar³.

Mazkur muammo jahon olimlaridan F.Blake, D.Noumann, M.D.Ripi, P.Col va ularning safdoshlari tomonidan o‘rganilgan. Olib borilgan tadqiqot natijalari alohida e‘tiborga sazovor. Ular tomonidan ishlab chiqilgan usullardan malakali kurashchilarning mashg‘ulot jarayonlarida unumli foydalanilishi ularni jismoniy tayyorgarlikni optimallashtirish tizimiga joriy etish sohasida maxsus tadqiqotlar olib

² Kerimov N.A. Программированное обучение технико-тактическим действиям в спортивной борьбе: Автореф. дис. ...канд. пед. наук.- М., 1990. -24 с. Керимов Ф.А. Теоретико-методические направления совершенствования содержания и структуры дисциплины спортивная борьба: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. -М., 1995.-26 с., Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 2004. -51с. Бакиев З.А., Тастанов Н.А. Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности // Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2008.- №3. – В. 125-130. Aliev I.B. Kurashda ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. “O‘zkitobsavdonashriyoti”, 2020. – 128 b. Dadabaev O.J. Kurashchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi konsepsiyasi. Dissertatsiya. 2021.- 230 b. Xalmuxamedov R.D., Tajibaev S.C. Yosh yakkakurashchilarni ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonining turli bosqichlarida saralashning me‘yorlari/O‘quv-uslubiy qo‘llanma – O‘zDJTI, 2013. – 166 b.; Sh.A Mirzakulov. Yosh belbog‘li kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi/ Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatining zamonaviy muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. II qism. – Toshkent. 2015. – В. 83-84; Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – “Sano-standart”, Toshkent. – 2017. 480 b. Mirzaqulov Sh.A., Mirzanov Sh.S., Artiqov Z.S., Qirg‘izboev M.M. – Sport pedagogik mahoratini oshirish (Belbog‘li kurash). O‘quv qo‘llanma. “PRESS NASHRIYOTI”, 2018. - 172 b. Sh.X Xankeldiev Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. – Т.: O‘zDJTSU. – 2019. –232 b. Taymurotov A.R., Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Т- 2019. 195 b.; Artiqov Z. – Sport pedagogik mahoratini oshirish (belbog‘li kurash) O‘quv qo‘llanma – Toshkent “O‘zkitobsavdonashriyoti”, 2020. 144 b. Elov A.N. Повышение спортивного мастерство по кураш. Учебник. “Davr matbuot savdo” nashriyoti 2020. - 249 b. Mirzanov SH.S., Belbog‘li kurashchilarda kuch qobiliyatini izokenitik mashqlar yordamida rivojlantirishning baholash metodikasi. Monografiya «LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti, 2021 -130 b. Tangriev A.J. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Kurash). Darslik. – Toshkent. “O‘zkitobsavdonashriyoti”, 2020. – 147 b. Bobomurodov F.I. Kurashchilarning morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik-taktik harakatlarni takomillashtirishga differensial yondashuv. Diss. avtoref. – Ch., 2019. – 70 b.

³ Рибакoв В.В., Медведев Г.Э. и др. Подходы к разработке концепции индивидуализации подготовки спортсменов высокой квалификации //Теория и практика физической культуры – 2000.-№4.-С.51-59.; Никитушкин В.Г., Учебник. Теория и методика юношеского спорта. – М.; 2010.-206 с.; Жулина Г.В. К проблеме здоровья и здорового образа жизни человека / Проблемы здоровья человека. Развитие физической культуры и спорта в современных условиях: Материалы межрегиональной научно-практической конференции, посвященной 55-летию ФФК СГУ. - Ставропол: Изд-во - СГУ., 2002.-С. 179-181.

borishni taqozo etadi⁴.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, malakali kurashchilarning texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligini optimallashtirish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-uslubiy materiallar kurashchilarni o'rgatish paytida mazkur muammo bo'yicha tadqiqotlarning yetarli emasligini va tanlangan mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Tahlillarga ko'ra milliy kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi 14-15 yoshli sportchi qizlarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish va optimallashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, o'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarning harakat tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi sport mashg'ulotlari tizimini yaratish uchun zarur bo'lgan bilim chegaralari kengaytirilmagan. Milliy kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi 14-15 yoshli sportchilarning sport mashg'ulotlari tizimini yaratish jarayonida yuzaga keladigan muammoli o'rinlar aniqlandi va asosiy muammolarning yechimlari ko'rsatildi. Mazkur holat dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2022-2024 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq olib borilmoqda. Tadqiqotning asosiy yo'nalishi – o'quv-mashg'ulot guruhlarida muntazam shug'ullanayotgan 14–15 yoshli kurashchilarning harakat tayyorgarligi holatini aniqlash, ularning jismoniy va funksional rivojlanish darajasini baholash, shuningdek, sport mashg'ulotlarining organizmga ta'sirini aniqlash orqali kurashchilarda zarur bo'lgan harakat sifatlarini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari yosh sportchilarni tayyorlashda ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi o'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarning harakat tayyorgarligini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchi qizlarning haftalik mashg'ulot tuzilmasini ishlab chiqish;

kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan yakkalikda va juftlikda qo'llaniladigan maxsus mashqlarni mashg'ulotlar jarayonida qo'llash metodikasini takomillashtirish;

o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarning hujum, himoya, qarshi hujum harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan harakat tayyorgarligini takomillashtirish modelini ishlab chiqish;

14-15 yoshli kurashchilarni jismoniy rivojlanganlik holatini inobatga olib har bir mashg'ulot va musobaqa davrida bo'shashtiruvchi va tezkor tiklovchi periferik

⁴ Blake F. Planing of loading for training of skills in boxing Phyladelphia.; Noumann D. Scidi fondo e valutarione funzionale // Rivistadi cultura sportive. -1987, №78. – P. 87-93.; Рипи М.Д. Физическая культура и спорт в общеобразовательной школе. М. Просвещение. 1985. – 96 с.; Col P. Principes de developpement pour coureurs de mounne distance // Revue d affa. -92.1987. – P. 15-21.

vositalarni qo'llash metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini sifatida o'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarning mashg'ulotlari jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini o'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarning harakat tayyorgarligini optimallashtirish metodikasi tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, pulsometriya, antropometriya, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, instrumental uslub, pedagogik tajriba va matematik statistika usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchi qizlarning haftalik mashg'uloti tuzilmasini umumiy jismoniy tayyorgarlik 2–3 marta, 60–90 daqiqa, maxsus jismoniy tayyorgarlik 2–3 marta, 60–90 daqiqa, texnik-taktik mashqlar 3–4 marta, 60–120 daqiqa, nazorat-sparring mashg'ulotlari 1–2 marta, 90–120 daqiqa, tiklanish (massaj, cho'zilish va h.k.) har hafta, 1–2 marta o'zgartirish hisobiga mashg'ulot yuklamalarini oson o'zlashtirish imkoniyati kengaytirilgan.

kurashchilarning jismoniy (tezlik, kuch, chidamlilik) sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan yakkalikda (10-20 m qisqa masofaga tezlanish bilan past startda yugurish ("spurt"), joyida turgan holda yuqori startdan yugurish (o'quv mashg'ulot jarayoniga qarab 10 dan 20 soniyagacha), sonni yuqoriga ko'tarib yugurishdan 10-20 m masofaga tezlikka yugurishga o'tish) va juftlikda (sherik bilan yugurish (har ikkala sportchi bir-birlariga bog'langan holatda yuguradi), maxsus kurash qopini ko'targan holda beldan oshirib tashlash harakatlarini bajarish) qo'llaniladigan maxsus mashqlarni mashg'ulotlar jarayoniga tizimli qo'llash hisobiga harakat tayyorgarligi takomillashtirilgan;

o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarning hujum, himoya, qarshi hujum harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan harakat tayyorgarligini takomillashtirish modeli tarkibiga kognitiv, produktiv, reproduktiv baholash mezonlarini kiritish hisobiga mashg'ulot va musobaqa jarayonida yuqori natijalar qayd etish imkoniyati kengaytirilgan;

14-15 yoshli kurashchilarni jismoniy rivojlanganlik holati (Y.Q.S., bo'y, vazn, O'S, o'ng va chap qo'l kuchi) kabi ko'rsatkichlar inobatga olinib har bir mashg'ulot va musobaqa davrida bo'shashtiruvchi (massaj, stretching (cho'zilish mashqlari), nafas mashqlari, aromaterapiya va muhit) va tezkor tiklovchi (krioterapiya (sovuq bilan muolaja), kontrast vannalar (issiq-sovuq almashinuvi), fizioterapevtik qurilmalar, sport ovqatlanish) periferik vositalarni qo'llash hisobiga organizmni tezroq tiklash imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kurashchi qizlarning musobaqa faoliyatini tahlil qilish uslubiyatini takomillashtirish, ularning kompleks tayyorgarlik ko'rsatkichlarini rivojlantirish shakllari va ularning harakat tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulotlarini tashkil qilishda qo'llanilishi mumkin;

ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy hamda amaliy metodik tavsiyalardan kurashchilarning texnik-taktik harakatlar tayyorgarligini tahlil qilish, maxsus mashqlar va usullardan foydalanish dasturlari, shuningdek, texnik-taktik

harakatlarni rivojlantirish hamda takomillashtirishda, o'quv-mashg'ulotlar hamda sportchilarni musobaqalarga saralash jarayonlarida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv, tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy nazariyalar, sport amaliyotida mavjud qoidalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, tadqiqotning ilmiy tashkil etilganligi bilan tasdiqlanadi. Qo'llanilgan tadqiqot uslublari majmuasi tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarga mos keladi, katta daliliy materiallarning yuqori darajadagi ishonchliligi, to'g'ri ishlab chiqilganligi, tahlil va talqin etilganligi bilan izohlanadi. Olingan natijalarning to'g'riligi va ishonchliligi, aniq hamda tadqiqot va pedagogik uslublarning qo'llanilganligi bilan ta'minlangan. Tadqiqot natijalarining sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlari hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil uslublari orqali tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o'tkazilgan pedagogik tajribalarda olingan natijalar asosida kurashchilarning o'quv-mashg'ulotlarida qo'llanilayotgan yangi vositalari va harakat tayyorgarligini maqsadli takomillashtirish dasturi ishlab chiqildi hamda uning samaradorligi, qo'llashning ilmiy mohiyati ochib berildi. Tadqiqotlar davomida kurashchilarning harakat tayyorgarlik qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirishning o'zaro bog'liqligi amaliyotda isbotlandi. Mazkur olingan ma'lumotlar sport kurashi nazariyasi va uslubiyati sohasidagi nazariy bilimlarni boyitish va kengaytirish imkonini beradi.

Kurashchilarning kompleks qobiliyatlarni rivojlantirish va texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish texnologiyasi ishlab chiqildi hamda jismoniy sifatlarni yaxshilash orqali ularning musobaqa faoliyati natijadorligini oshirish imkoniyati yaratildi. Kurashchilarning kompleks tayyorgarlik ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha ishlab chiqilgan tamoyillardan kurash sport turining boshqa turlarida, ixtisoslashgan sport ta'lim muassasalari va kurash bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi sportchilarining mashg'ulotlari jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'smir kurashchi qizlar harakat tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

- o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchi qizlarning haftalik mashg'uloti tuzilmasini umumiy jismoniy tayyorgarlik 2-3 marta, 60-90 daqiqa, maxsus jismoniy tayyorgarlik 2-3 marta, 60-90 daqiqa, texnik-taktik mashqlar 3-4 marta, 60-120 daqiqa, nazorat-sparring mashg'ulotlari 1-2 marta, 90-120 daqiqa, tiklanish (massaj, cho'zilish va h.k.) har hafta, 1-2 marta o'zgartirish bo'yicha takliflar Sport maktabi mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 11-martdagi 03-01-04-20-2219-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 14-15 yoshli kurashchilarning chidamlilik sifati 20,6% ga, past turnikda tortilish bo'yicha (kuch sifati) 18,3% ga, mokisimon yugurish 19,5% ga, turgan joydan uzunlikka sakrashda (tezkor-kuch sifati) 21,9% ga, oldinga egilishda egiluvchanlik sifati 18,1% ga yaxshilangan;

- kurashchilarning jismoniy (tezlik, kuch, chidamlilik) sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan yakkalikda (10-20 m qisqa masofaga tezlanish bilan past

startda yugurish ("spurt"), joyida turgan holda yuqori startdan yugurish (o'quv mashg'ulot jarayoniga qarab 10 dan 20 soniyagacha), sonni yuqoriga ko'tarib yugurishdan 10-20 m masofaga tezlikka yugurishga o'tish) va juftlikda (sharik bilan yugurish (har ikkala sportchi bir-birlariga bog'langan holatda yuguradi), maxsus kurash qopini ko'targan holda beldan oshirib tashlash harakatlarini bajarish) qo'llaniladigan maxsus mashqlarni mashg'ulotlar jarayoniga tizimli qo'llashga doir tavsiyalar Sport maktabi mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 11-martdagi 03-01-04-20-2219-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 14 yoshli kurashchilarning tezkorlik sifati 19.4% ga, 15 yoshli kurashchilarning 21,3% ga yaxshilangan;

- o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarning hujum, himoya, qarshi hujum harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan harakat tayyorgarligini takomillashtirish modeli tarkibiga kognitiv, produktiv, reproduktiv baholash mezonlari kiritish bo'yicha takliflar Sport maktabi mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023 yil 11-martdagi 03-01-04-20-2219-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 14 yoshli kurashchilarning tezkorlik sifati 19.4% ga, 15 yoshli kurashchilarning 21,3% ga yaxshilangan;

-14-15 yoshli kurashchilarning jismoniy rivojlanganlik holati (Y.Q.S., bo'y, vazn, O'S, o'ng va chap qo'l kuchi) kabi ko'rsatkichlar inobatga olinib har bir mashg'ulot va musobaqa davrida bo'shashtiruvchi (massaj, stretching (cho'zilish mashqlari), nafas mashqlari, aromaterapiya va muhit) va tezkor tiklovchi (krioterapiya (sovuq bilan muolaja), kontrast vannalar (issiq-sovuq almashinuvi), fizioterapevtik qurilmalar, sport ovqatlanish) periferik vositalarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar Sport maktabi mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrug'iga asosan 166-017-raqamli guvohnoma). Natijada 15 yosh kurashchilarning chidamlilik sifati 19,1% ga, egiluvchanlik sifati 19,3% ga o'sishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shundan 1 tasi xorijiy ilmiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bobdan iborat bo'lib, 134 sahifalik matn, 7 ta rasm, 14 jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va amaliy zarurati asoslab berilgan bo'lib, u sport sohasini rivojlantirish, xususan, o'smir yoshdagi kurashchilarni ilmiy asosda tayyorlash orqali ularning jismoniy va funksional salohiyatini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat

qilishi bilan ahamiyatlidir. Tadqiqot mavzusi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga, jumladan, sog‘lom avlod tarbiyasi, sport turlarining ilmiy-uslubiy asosda takomillashtirilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Muammoning o‘rganilganlik darajasi ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili orqali yoritilgan bo‘lib, mavzuning yangicha yondashuvlar asosida chuqur o‘rganilishini taqozo etishi asoslab berilgan. Tadqiqot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq amalga oshirilgan bo‘lib, unda kurashchilarning harakat tayyorgarligini baholash va uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yuzasidan ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘smir sportchilarni tayyorlash tizimining ilmiy-pedagogik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot muammosi bo‘yicha rasmiy hujjatlar va nazariy manbalar tahlili, o‘smir sportchilarni tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish hozirgi davrda sport pedagogikasi va sport mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaldagi rasmiy hujjatlar hamda nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari birinchi navbatda sport mashg‘ulotlarining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan mikrosikllar tuzilishini aniqlashga yo‘naltirilgan.

Ko‘pchilik tadqiqotlar mikrosikllar doirasidagi yuklama hajmi va intensivligini oshirib borish orqali sportchilarning natijadorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa, kurash turlari bo‘yicha mashg‘ulotlarda bu masala dolzarb hisoblanadi. Malakali sportchilarning tayyorgarligida, xususan, kun davomida o‘tkaziladigan bir nechta mashg‘ulotlar orqali bajariladigan ishlarning mazmuni va ketma-ketligi sportchining organizmiga ko‘rsatiladigan yuklama va ta’sirni belgilaydi.

Shu bilan birga, nazariy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, agar mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar, ularning almashinuvi, davomiyligi va tartibi bir xil metodik toifaga mansub bo‘lmasa, bu holatda sportchilarda rejalashtirilgan natijalarga erishish qiyinlashadi. Ya’ni mikrosikllarning strukturaviy yaxlitligi, yuklamalarning bosqichma-bosqich ortib borishi, tiklanish davrlarining to‘g‘ri tashkil etilishi hamda mashg‘ulot vositalarining izchilligi o‘zaro uyg‘unlashgan holda amalga oshirilmasa, sportchining funksional holati, texnik-taktik tayyorgarligi va psixologik barqarorligi zarar ko‘rishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, mavjud ilmiy-tadqiqotlar tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, kurash bo‘yicha o‘smir sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishda mikrosikllarning tarkibi, mashg‘ulotlar almashinuvi, yuklama vaqti va hajmining nazariy asoslanganligi sportchining yosh, jins, jismoniy holat va biologik rivojlanish darajasiga mos kelishi zarur. Aks holda tayyorgarlik jarayonida ko‘zlangan natijalarning samaradorligi past bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so‘rovnomasi, pedagogik kuzatuv,

pedagogik-nazorat, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanilganligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Pedagogik tadqiqotlar 3 bosqichda tashkil etildi: **Birinchi bosqichda (2020-2021-yillar)** 14-15 yoshli kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi mezonlari aniqlandi, ularning asosida sportda ixtisoslashuv bosqichida ustuvor yo'nalganlikka ega bo'lgan nazorat mashqlari majmualari ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqichda (2021-2022-yillar) yosh kurashchilarning maxsus tayyorgarligi omillarining mashg'ulot vositalarining jadallik zonalari bo'yicha taqsimlanishi va ularning yosh sportchilar guruhlaridagi nisbatlari taxminan o'xshash bo'ldi, yuklamalarning kattaliklari va tayyorgarlikning ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli farqlar kuzatilmadi. Shakllantiruvchi tajriba ma'lumotlarining informativligini ko'proq darajada ta'minlash uchun o'smirlarning jismoniy rivojlanishining uchta ko'rsatkichi kiritildi.

Uchinchi bosqichda (2022-2023-yillar) tadqiqotda 14-15 yoshli yosh kurashchilarning har xil yo'nalganlikka ega bo'lgan yuklamalarini tayyorgarlik bosqichi mikrosikllarida tuzish uslubiyati ishlab chiqildi va tajribalarda asoslandi, bu yosh sportchilarning sport mahoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar, shuningdek, nazorat qilish tizimidan foydalangan holda turli xil mashg'ulotlarning mavjud usullari muammolarni yechishga asoslangan sport mashg'ulotlarini optimallashtirish tajribada asoslab berildi.

Dissertatsiyaning "**O'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchi qizlarning tayyorgarligi dinamikasi**" deb nomlangan uchinchi bobi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida kurashchi sportchilarning, xususan, 14 yoshli qizlarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajalarining rivojlanishini aniqlash va baholashga qaratildi. Tadqiqotlar jarayonida o'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanayotgan sportchilar bilan maxsus tuzilgan sinov dasturlari asosida ish olib borildi. Bu sinovlar yordamida sportchilarning asosiy jismoniy sifatleri – kuch, tezlik, chidamlilik va egiluvchanlik darajalari baholandi.

Navbatdagi amaliy nazorat sinovida yosh kurashchi qizlarni chidamkorlik jismoniy sifat ko'rsatkich darajalarini aniqlab olish uchun 1000 m mosofaga yugurish sinama mashqi tanlab olindi. Olingan natijalar yil boshida $5.25.0 \pm 0,45$ min ni tashkil qilgan bo'lsa, variatsiya koeffitsiyenti 8,57% ni ko'rsatdi. Yil oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich $5.10.0 \pm 0,48$ min ga teng deb topildi. Variatsiya koeffitsiyenti 9,41% bilan yosh kurashchilarning chidamkorlik jismoniy sifat ko'rsatkich darajalarida o'sish kuzatildi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi ($p > 0,05$) tashkil etdi.

Keyingi amaliy nazorat sinovini o'tkazish maqsadida past turnikda 90° tortilish mashqi tanlab olindi. Yosh kurashchi qizlarning ko'rsatgan natijalari yil boshida $13 \pm 1,0$ marotabani tashkil etdi, variatsiya koeffitsiyenti 7,6% ni tashkil etgan bo'lsa, yil oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich natijalari $15 \pm 2,12$ marotabaga o'zgardi va variatsiya koeffitsiyenti 14,13% ni tashkil qildi. Yil boshiga nisbatan yil oxirida 2 marotaba yaxshilanib kuch jismoniy sifat ko'rsatkichlarida rivojlanganligini ko'rish mumkin. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi ($P > 0,05$) tashkil etdi.

14 yoshli kurashchilarning kuch jismoniy sifat ko'rsatkich darajalarini aniqlab olish uchun turgan joyda uzunlikka sakrash mashqi tanlab olindi. Ushbu belgilangan mashq orqali 14 yoshli kurashchilarning yil boshida olingan natijalari $1,60 \pm 0,39$ m masofaga sakrashdi. Variatsiya koeffitsiyenti 24,37% ni tashkil qildi, ushbu ko'rsatkich yil oxiriga kelib $1,70 \pm 0,61$ m sakrash mashqi bilan yakunlangan bo'lsa, variatsiya koeffitsiyenti 35,88% natijani ko'rsatishdi. Ushbu sinov mashqi orqali yil boshiga nisbatan yil oxirida 10 s ga o'sish kuzatildi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi ($P > 0,05$) tashkil etdi.

1-jadval.

O'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanuvchi 14 yoshli kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (qizlar)

| T./r. | Nazorat mashqlari va o'lchov birligi | O'quv yilining boshida | | O'quv yilining oxirida | | Farqi | % | t |
|-------|--|------------------------|-------|------------------------|-------|-------|------|----------|
| | | $X \pm \sigma$ | V% | $X \pm \sigma$ | V% | | | |
| 1. | 60 m.masofaga yugurish (sekund) | $10 \pm 1,2$ | 12,2 | $9.8 \pm 1,5$ | 15,30 | 0,2 | 0,84 | $> 0,05$ |
| 2. | 1000 m.masofaga yugurish (minut) | $5.25.0 \pm 0,45$ | 8,57 | $5.10.0 \pm 0,48$ | 9,41 | 0,15 | 1,23 | $> 0,05$ |
| 3. | Mokki tarzda yugurish 3x10 m (sekund) | $7,4 \pm 1,4$ | 18,9 | $7,2 \pm 1,6$ | 22,22 | 0,2 | 1,62 | $> 0,05$ |
| 4. | Past turnikda 90° tortilish (marotaba) | $13 \pm 1,0$ | 7,6 | $15 \pm 2,12$ | 14,13 | 2 | 1,98 | $> 0,05$ |
| 5. | Turgan joydan uzunlikka sakrash (metr) | $1,60 \pm 0,39$ | 24,37 | $1,70 \pm 0,61$ | 35,88 | 0,10 | 0,52 | $> 0,05$ |
| 6. | Oldinga egilish (sm) | $10 \pm 2,9$ | 29 | $14 \pm 3,6$ | 25,7 | 4 | 1,32 | $> 0,05$ |

Navbatdagi sinov mashqi orqali egiluvchanlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun oldinga egilish mashqi tanlab olindi. Tashkil etgan variatsiya koeffitsiyenti 29% ni ko'rsatishdi. Yilning oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich $14 \pm 3,6$ sm variatsiya koeffitsiyenti esa 25,7% bilan egiluvchanlik jismoniy sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishishdi. Olingan natijalar orasida statistik ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi ($P > 0,05$) tashkil etdi.


2-jadval.

14-15 yoshli kurashchi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik darajalari


| AKROBATIK MASHQLAR | Baho | % |
|---|------|----|
| Hujum harakatlari qo'llangan holda yuqori sur'atda bajarilishi | 5 | 30 |
| Hujum va qarshi hujum harakatlari qo'llangan holda yuqori sur'atda bajarilishi | 4 | 35 |
| Bellashuv o'rta sur'atda bajarilishi va hujum harakatlari cheklangan holda qo'llanilishi | 3 | 25 |
| Bellashuv sust sur'atda o'tishi va hujum hamda qarshi hujum harakatlarning qo'llanilmasligi | 0 | 10 |

Izoh: Akrobatik mashqlar – umbaloq oshish (oldinga orqaga), kolso, randat, gilamga boshni qo'ygan holda oldinga aylanish, xavfsiz yiqilish kabi harakatlar bajarilishiga qarab baholanadi.

Yosh kurashchi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik darajalari aniqlanganda quyidagi ko'rsatkichlar olindi. Unga ko'ra 14-15 yoshli kurashchi qizlarning yil boshida qayd etgan natijalari hujum harakatlarini qo'llagan holda yuqori sur'atda bajarilgan harakatlar kurashchi qizlarning 30% da aniqlik va sifatli harakatlar kuzatildi va 5 baho bilan baholandi. Hujum va qarshi hujum harakatlarini qo'llagan holda yuqori sur'atda bajarilgan harakatlar 35% qizlarda kuzatildi va 4 baho bilan qayd etib borildi. Yosh kurashchi qizlarning 25% da bellashuv o'rta sur'atda davom etgani va hujum harakatlari cheklangan holda bajarilishi kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichni qayd etgan yosh kurashchi qizlar 3 baho bilan baholanishdi. Bellashuvni sust sur'atda o'tkazgan hamda hujum va qarshi hujum harakatlarini qo'llay olmagan kurashchi qizlar 10% ni tashkil etishdi va 0 bahoga loyiq ko'rildi (A jadvalga qarang). Ko'rsatkich natijalarining umumiy yakuniga qarab yosh kurashchi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlariga umumiy xulosa chiqariladi.



1-rasm. O'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarni jismoniy mashqlar vositasida intellektual rivojlantirish modeli



2-rasm. 14-15 yoshli kurash bilan shug'ullanuvchi qizlarning harakat tayyorgarligini takomillashtirish modeli

Tadqiqotda ishimizning metodik asosi uchun model asosida sportchilarning texnik-taktik, jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi tizimli yondashuv asosida ishlashni lozim topdik va biz tomonimizdan 14–15 yoshli kurashchi qizlarning harakat tayyorgarligini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi. Mazkur model o‘quv-mashg‘ulot jarayonida 14–15 yoshli kurashchi qizlarning harakat tayyorgarligi darajasini izchil rivojlantirish, ularning sport-texnik va jismoniy imkoniyatlarini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish uchun mo‘ljallangan. Model yuqoridagi asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

Tadqiqotlar davomida 14–15 yoshli o‘smir kurashchi qizlar harakat tayyorgarligini takomillashtirish modeli asosida jismoniy tayyorgarligining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanish sur‘atlari alohida o‘rganildi. Ayniqsa, tezlik sifati bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning sezilarli darajada o‘zgarishi kuzatildi. Bu, o‘z navbatida, sportchilarning kurash musobaqalari uchun zarur bo‘lgan chaqqonlik, epchillik va portlovchi harakatlarga tayyorligini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yosh kurashchi qizlarda kuch jismoniy sifatlari dinamikasini pedagogik testlash jarayonlariga ahamiyat qaratdik. Mazkur testlash jarayonlarida sportchi qizlarimiz eng yuqori shiddat samaradorligini polga tayangan holda og‘irligi 3 kg ga teng bo‘lgan to‘ldirma to‘pni yelkaga qo‘yib “otjimaniya” qilish maxsus mashq turidan ko‘rsatishdi. Yuqori quvvat talab qilingan mashq turida sportchi qizlarimiz o‘rtacha 1-12 daqiqada qayta tiklanish holatiga o‘tdilar, mashq takrorlanishlar soni 8-10 marotabagacha uzaytirilgach yurak ish faoliyati ko‘rsatkichlari 140-150 martaga yetganligi qayd etildi.

3-jadval.

Yosh kurashchi qizlarning kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlar

| № | Mashqlar nomi | Shiddati | Dam olish vaqti | Takrorlash soni | YU.Q. S. |
|----|---|----------|-----------------|-----------------|----------|
| 1. | Polga tayangan holda og‘irligi 3 kg ga teng bo‘lgan to‘ldirma to‘pni yelkaga qo‘yib otjimaniya qilish (10 marta). | Yuqori | 1-2 min | 8-10 marta | 140-150 |
| 2. | Chalqancha yotgan holda og‘rligi 5 kg ga teng bo‘lgan to‘ldirma to‘pni yuqoriga ulotqirish (10 marta). | Yuqori | 1-2 min | 8-10 marta | 150-160 |
| 3. | Chalqancha yotgan holatda gavgani bukish va yozish. | O‘rta | 1-2 min | 10- marta | 130-140 |
| 4. | Shved devori ustunlariga osilgan holda gavgani 90* ga ko‘tarish. | O‘rta | 1-2 min | 4- marta | 145-150 |
| 5. | Juftlikda og‘irligi har ikkala raqib bir-birlarini navbat bilan ko‘tarib tushirish. | Yuqori | 1-2 min | 4- marta | 160-170 |
| 6. | Juftlikda maxsus kurash qopini ko‘targan holda beldan oshirib tashlash harakatlarini bajarish. | Yuqori | 1-2 min | 30- marta | 160-170 |
| 7. | Gimnastika o‘rindig‘ida o‘tirgan holatda og‘irligi 5 kg bo‘lgan gantellarni ko‘tarish. | O‘rta | 1-2 min | 30- marta | 140-150 |
| 8. | Juftlikda ma’lum bir 30 m qisqa masofaga navbat bilan bir-birini | Yuqori | 1-2 min | 4- marta | 160-170 |

| | | | | | |
|-----|---|--------|---------|------------|---------|
| | ko'targan holda olib borish. | | | | |
| 9. | Juftlikda raqib bilan beldan oshirib tashlash usulini 10 marta qaytarish (chap va o'ng tomonlarga). | Yuqori | 1-3 min | 10-4 marta | 160-170 |
| 10. | Juftlikda bajariladigan mashq (birinchi sportchi chalqancha otadi ikkinchi sportchi ustiga chiqib sherigini maxkam ushlab turadi, chalqancha yotgan sportchi raqibi ostidan chiqib ketishi lozim. 30 soniya ichida) | O'rta | 1-2 min | 5- marta | 140-150 |

Shiddat darajasi me'yoriy o'rtacha natijadorlik 30 m qisqa masofaga 2 marotaba yugurib borish va qaytish. Dastlab 1-30 m likda mayda qadamlar bilan keyingii 30 m likda yuqori tezlikda yugurish testlash turida qayd etildi. Mazkur testlash jarayonlarini kurashchi qizlarimiz o'rtacha sur'atda bajarib, dam olish vaqtida o'rtacha 2-3 daqiqalik vaqt sarflashgani, urinishlar soni 3-4 marta bo'lishiga qaramay, yurak urishi chastotasi birmuncha sekinroq 150-160 martagacha urganligi qayd etildi.

Chalqancha yotgan holatda gavdani bukish va yozish mashq turi natijadorligi o'rta darajada bo'lib, takrorlanishlar soni 10 martagacha bo'lishiga qaramay dam olish uchun kurashchi qizlarimiz o'rtacha 1-2 daqiqa sarflashdi xolos. Yurak urish chastotasi ko'rsatkichlari o'rtacha 130-140 marotabagacha qayd etildi (3-jadvalga qarang).

Tadqiqot jarayonlarining eng shiddatli yuqori ko'rsatkichni qayd etgan juftlikda raqib bilan beldan oshirib tashlash usulini 10 marta qaytarish (chap va o'ng tomonlarga) maxsus kurash mashqida kurashchi qizlar mashqni 10 martagacha takrorlashganiga qaramay, o'rtacha 1-3 daqiqa sarf etishdi. Mashq turning intensivligi va ko'p harakat talab etilishi hisobida yurak faoliyati ko'rsatkichlari ham eng yuqori 160-170 martani tashkil etdi.

Dissertatsiyaning **“O'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarning kompleks tayyorgarligida ishlab chiqilgan metodika samaradorligi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida 14 yoshli kurashchi qizlarning mashg'ulot davomida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi qay darajada yaxshi shakllanib kelayotganini aniqlash uchun amaliy nazorot sinovlari olindi.

Bizning nuqtayi nazarimizda ilgari surilgan ilmiy farazimizning qanchalik haqiqatga yaqinligi tajriba guruhida shug'ullanuvchi kurashchilarning jismoniy sifatlari nazorat guruhida shug'ullanuvchi tengdoshlari natijalariga nisbatan solishtirilganda o'sish darajasining foizlarida katta farqlar aniqlanganligi bilan o'z isbotini topmoqda. Yuqorida o'tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so'rovnomasi, suhbat, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash usullaridan foydalangan holda o'tkazilgan ilmiy izlanishlarimizdan olingan natijalar xulosalariga tayangan holda yosh kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning qo'llanilish shiddati hajmi va me'yorlarini aniqlab tatbiq etishning samaradorligini aniqlash maqsadida 15 yoshli kurashchi qizlarda pedagogik tajriba o'tkazildi.

Tajriba va nazorat guruhlarida shug‘ullanuvchi 15 yoshli kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (qizlar)(N=34)

